



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “20” may

BUYRUQ № 105

Toshkent sh.

**Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini
hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi sohasini yanada takomillashtirish, sohaga sifatni boshqarishning xalqaro modellarini joriy qilish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 29- martdagi “Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 12- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom

Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keying o‘rinlarda – GSBPM)) va “Statistik ma‘lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o‘rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizomni shakllantirishda “Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi: amaliyot va nazariya” (YeIQ, BMT, XVJ, XMT, IXRT, Yevrostat, Butunjahon banki, 2004 yil) tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu Uslubiy nizom ulgurji savdo narxlari kuzatuvining umumdavlat statistik usullari va asosiy jihatlarini, kuzatuv uchun tasniflash tizimi va qamrovini, saralangan namunalar tanlovi, salmoq vazn tarkibiy qismlarining shakllanishi va turli darajadagi agregatlarning narx indekslari hisoblanishi tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta‘riflar qo‘llanilgan:

tayanch yil – tovarlarning ulgurji savdosi bo‘yicha yillik qiymat shaklidagi umumiy hajmdan kelib-chiqib, tanlanma statistika kuzatuvlar uchun tayanch korxonalar va vakil-tovarlar tanlanadigan yil (keyingi o‘rinlarda - ulgurji narx);

tayanch tashkilot – ulgurji savdo narxlar kuzatuvi uchun representativ tanlab olingan tashkilot.

vakil-tovar – tovarlarning umumiy miqdori doirasida ushbu turdagi mahsulotning ulgurji savdosi hajmida eng katta ulushga ega bo‘lgan sifat va asosiy iste’mol xususiyat (tavsif)lari bo‘yicha mazkur turdagi tovarlardan ahamiyatsiz darajada farqlanadigan muayyan turga mansub aniq tovar turi;

salmog‘ ulushi – tayanch yil uchun umumiy ulgurji tovar aylanmasi hajmidagi ulgurji tovar (tovarlar guruhi)lar qiymati hajmi ulushi. Ushbu o‘lchov birligi umumiy hajmdagi har bir elementning ahamiyatligini aks ettiradi.

indeksning tayanch davri – narx indeksi qiymatlari 100% ga tenglashtirilib, oylik narx indeksleri o‘zaro bog‘lash amalga oshiriladigan davr;

individual narx indeksi – aniq turdagi vakil-tovarning narxlari darajasi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkich;

jamlangan (umumiy) narx indeksi – alohida guruh, kichik guruh yoki umumiy hisobda o‘rganilayotgan jarayonning narxlari darajasi o‘zgarishi va individual narx indeksleri asosida shakllanadigan nisbiy ko‘rsatkich;

tovarlarning ulgurji savdo narxlari – sotuvchi tomonidan savdo nuqtalari orqali (ulgurji omborxonalar va bazalar, ulgurji savdo nuqtalari va h.k.) xaridorlarga qayta sotish va foydalanish uchun sotiladigan turi o‘zgarmagan tovarlar narxi. Bu narx qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz va boshqa turdagi soliqlarni o‘z ichiga oladi. Ulgurji savdo bilan bog‘liq jarayonlarning majburiy xususiyatlari – tovarlarning jo‘natilganligini tasdiqlovchi hisob-varaqalar yoki boshqa biror hujjatlarning mavjud bo‘lishidir.

Ushbu Uslubiy nizomda qo‘llanilgan atamalar statistika organlari tomonidan statistik maqsadlar uchun ishlatiladi.

2-bob. Tadqiqot vositalari

2.12 narx “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (yirik korxonalar uchun)” va 4 narx “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma (kichik tadbirkorlik korxonalari uchun)” shakllari ma’lumotlari tovarlarning o‘rtacha ulgurji savdo narxlari va narxlarning umumiy indeksini aniqlashda ma’lumotlar manbasi bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur shakl GSIMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

3-bob. Tasniflash tizimi va qamrovi

3. Ulgurji savdo narxlari indeksi uchun geografik va tarmoqlar qamrovi doirasi, statistik kuzatuv birliklari (tayanch korxonalar turkumlari) aniqlanadi.

4. Geografik qamrov doirasida ulgurji savdo narxlari indeksini shakllantirish uchun mamlakatning barcha hududlarida ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar kuzatiladi.

5. O'zstandart agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) "Avtomobillarda va motosikllarda ulgurji va chakana savdo va ularni ta'mirlash" 45- bo'limi va "Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo" 46- bo'limlariga taalluqli ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatidagi narxlar o'zgarishini hisobga oladi.

6. Alohida turdagi tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblashda IFUT-2 tasniflagichiga muvofiq asosiy faoliyat turi ulgurji savdo bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari ham kuzatuvga kiritilishi mumkin. Bunday tadbirkorlik subyektlarini ulgurji savdo narxlari kuzatuidagi tayanch korxonalar qatoriga kiritilishi – ushbu korxonadagi tanlangan tovarlar hajmi aynan shu turdagi umumiy tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 5 % dan kam bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

7. Tovar darajasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2016- yil 30- dekabrda 59- son buyrug'i bilan tasdiqlangan ulgurji savdo nomenklaturasidan foydalaniladi.

4-bob. Tovarlarning umumiy ulgurji savdo narxlari indekslarini shakllanishining asosiy bosqichlari

8. GSBPMga muvofiq, ulgurji narxlar indeksini bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Ulgurji narxlar indeksini shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan tayanch obyektlar va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

d) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

e) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va narx indekslarini shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

5-bob.Tovarlar tanlanmasini shakllantirish

10. Ulgurji savdo narxlari statistik kuzatuv tovarlarning namunasi bo'yicha amalga oshiriladi.

11. Tanlov uch bosqichda amalga oshiriladi va har bir tanlov uchun muayyan mezonlardan foydalaniladi. Tanlovning barcha bosqichlarida tayanch yil uchun taqdim etilgan statistika hisobotlaridagi ulgurji savdo hajmlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

I Bosqich. Xizmatlar guruhi va sinflarini birlashtirish yo'li orqali ulgurji xizmatlarning umumiy makrotizimi aniqlanadi. Ulgurji savdo xizmatlari sinflari tanloviga kiritish uchun statistik kuzatuvning maqsadlariga muvofiqligi tahlil qilinadi. Oylik ulgurji savdo narxlari kuzatuvining maqsadi – uzoq davr mobaynida uzluksiz dinamik qatorlarga ega narx indekslarini shakllantirish (bir yildan kam bo'lmagan). Yil davomida tovarlar harakati sezilarli mavsumiy (vaqtinchalik) yoki epizodik xususiyatiga ega namuna sinflarini qamrab olmaydi.

II Bosqich. Ulgurji savdo xizmatlarining alohida sinflariga mansub tovarlar va kichik tovarlar tanlab olinadi. Narxlarni kuzatish uchun tanlangan ulgurji savdo xizmatlarining sinflari respublikada ulgurji savdoning asosiy yo'nalishlarini va tovarlarning turlari hamda kichik guruhlar – tovar aylanmasining asosi bo'lgan tarkibiy qismini aks ettiradi. Tanlov shakllantirilishining birinchi va ikkinchi bosqichlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

III Bosqich. Respublika ulgurji bozorining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi aniq turdagi pozitsiyalar, assortiment tarkiblari tanlab olinadi.

12. Tovarlar turlarini kichik turlari tanlovidagi yondashuv tovarlar guruhining xususiyatlariga (assortimentning kengligi, ulgurji bozorda muntazamligi va h.k) bog'liqdir.

13. Ommaviy talabga ega mahsulotlar orasida (kiyim-kechak, maishiy texnika, gigiyena tovarlari va boshqalar) mezonlari, turlarining ustunlik darajasi, xizmatlarning mazkur sinfida tovarlarning umumiy ulgurji savdo hajmidagi ulushi inobatga olingan holda odatdagidek tanlov usuli qo'llaniladi.

14. Talab darajasi yuqori bo'lmagan tovarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra (uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikalari, metall rudalari va h.k.) odatda vakillar kiritilishi bilan bir qatorda maqsadli tanlov usulidan foydalaniladi.

15. Ulgurji savdo sinfi xizmatlarining tanlangan toifalariga va ularning tanlangan turlariga qarab kichik turdagi tovarlar bo'yicha respublikaning har bir hududida ulgurji savdoning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi narxlarni kuzatish bo'yicha hududiy ro'yxat aniqlanadi.

16. Ulgurji savdo narxlari ma'lumotlarini taqdim etiluvchi har bir guruh va kichik guruhlar bo'yicha aniq turdagi vakil-tovarlar aniqlanadi.

17. Ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash maqsadi kuzatilayotgan narxlarda maksimal darajada inflyatsion bo'lmagan narxlar o'zgarishi inobatga olinmaydi. Shu maqsadda sifat xususiyatlari o'zgarmagan, ulgurji savdoning ma'lum bir o'lchamda yetkazib berilgan ulgurji partiyasi, aynan bir xil shartlar bo'yicha sotilayotgan va xarid qilinayotgan vakil-tovarlar o'rganiladi. Kuzatuv uchun tanlangan vakil-tovarlarga quyidagilar kiradi: markasi, navi, rusumi hamda vazni, qadog'i, iste'molchi turi va h.k. Taqqoslanishi bo'yicha batafsil ma'lumotlar ushbu uslubiy Nizomning 6- bo'limida keltirib o'tilgan.

18. Vakil-tovarlar quyidagi mezonlarga asosan tanlanadi:

1) ma'lum bir mahsulotning ichki turlar orasidagi va assortiment xususiyatlarini aks ettiradi;

2) mazkur turdagi mahsulot umumiy savdo hajmida yirikroq ulushni tashkil etadigani (umumiy savdo hajmining 30 foizidan ziyodrog'i);

3) tanlangan tovarlar uzoq vaqt davomida sotuvda bo'lishi va yuqori darajadagi tovar aylanmasi xususiyatiga ega bo'lishi;

4) narx ma'lumotlarini yig'ish nuqtai nazaridan olish mumkin bo'lgan va nomi hamda turi bo'yicha bir xil narxlar o'rtasidagi mavjud tebranishlarini minimallashtirilishini ta'minlaydi;

5) aynan aniq turdagi iste'molchi tomonidan xarid qilinadigan va yetkazib berish shartlari bo'yicha bir xil xususiyatga ega tovarlar tanlab olinadi.

19. Har bir turdagi, kichik turdagi tovarlar ro'yxatiga uch xildan kam bo'lmagan vakil-tovarlar tanlab olinadi, masalan (shartli ma'lumotlar):

tovar turi (kod 46.49.01) – "Oshxona anjomlari va oshxona metall idishlari"
vakil-tovarlar:

qog'oz qadoqdagi oshxona qoshiqlari to'plami (6 dona), ishlab chiqaruvchi mamalakat – Xitoy;

12 kishilik oshxona jihozlari to'plami (qoshiqlar, sanchqilar, pichoqlar-jami 36 ta buyumlar) ishlab chiqaruvchi mamalakat – Rossiya;

zanglamaydigan po‘lat materialidan kastryul to‘plami (3 donali to‘plam – 1,5l, 2,5l, 5l.) ishlab chiqaruvchi mamalakat – Avstraliya;

5l hajmdagi emallangan kastrul, ishlab chiqaruvchi mamalakat – O‘zbekiston.

20. Ulgurji savdo narxlari kuzatuv uchun tanlangan vakil-tovarlar hisobot yili davomida o‘zgarishsiz qoladi.

21. Tanlab olingan vakil-tovarlar narxlarini kuzatishning imkoni bo‘lmagan holatlarda turlari bo‘yicha guruh va kichik guruhlar bo‘yicha yangi vakil-tovarlar kuzatuvga kiritilishi mumkin. Yangi kiritilayotgan vakil-tovar oldingi vakil-tovar singari bir mamlakatda ishlab chiqarilgan bo‘lishi, xususiyatlari o‘zaro mos kelishi va narx darajasida biroz farq qilishi mumkin (farqi 5-10 foizdan oshmasligi kerak).

22. Tanlab olingan tovarlarning umumiy miqdori respublika bo‘yicha o‘tgan yildagi umumiy tovarlar miqdorining 75 % idan kam bo‘lmasligi kerak.

6-bob. Tayanch tashkilotlar tanlanmasini shakllantirish

23. Ulgurji savdo narxlari bo‘yicha Statistika agentligi kuzatuvlaridagi tayanch tashkilotlar umumiy tashkilotlar yig‘indisidan tanlanma yo‘l bilan saralab olinadi.

24. Ulgurji savdo tashkilotlarining umumiy yalpi namunasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 274-son qaroriga asosan faoliyat yuritayotgan korxonalar va ichki savdo subyektlarining dastlabki statistik ma‘lumotlari asosida ulgurji savdo hajmlari hisoblanadi.

25. Tayanch tashkilotlar tanlovi asosiy massiv usuli yordamida amalga oshirilib, bunda o‘rganilayotgan umumiy birliklarning eng ahamiyatlilari kuzatuv ostiga olinadi.

26. Agar tanlangan asosiy tashkilotlar kuzatilayotgan yirik guruhlarini, sinflarni, turlarini, kichik turlarini imkon qadar keng miqiyosda qamrab olsalar, eng optimal natijaga erishiladi.

27. Tanlovda yirik tashkilotlarga ko‘proq ahamiyat beriladi. Agar muayyan tovar bo‘yicha tanlangan yirik tashkilotlarning ulgurji tovar aylanmasi ulushi ushbu mahsulot bo‘yicha kam bo‘lsa, u holda, ushbu uslubiy nizomning 26- bandida ko‘rsatib o‘tilgan talablarga mutanosib bo‘lish uchun tanlov doirasi kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga ham kengaytiriladi.

28. Alohida pozitsiyalar bo‘yicha narxlarning solishtirma ma‘lumotlarini olish qiyin bo‘lgan vaziyatlarda tayanch tashkilotlardagi tovar aylanmasi ulushi biroz pastroq bo‘lishi mumkin.

29. Ulgurji savdo subyektlarini kuzatuvga kiritilishidagi asosiy mezonlar quyidagilar:

- 1) tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shakli bo'yicha turli xil subyektlarning maksimal darajadagi qamrovi;
- 2) ulgurji savdoning turli xususiyatlari (universal yoki ixtisoslashtirilgan) va tovar turlarining kengligi (keng, cheklangan, tor);
- 3) hisobot yili davomida muntazam savdo bitimlari;
- 4) ishlab chiqarilgan mahalliy va import tovarlari savdosi.

30. Ulgurji tovar aylanmasi hajmi va ulgurji savdoning doimiyligi bo'yicha tahliliy statistik ma'lumotlar asosida ulgurji savdo tayanch obyektlari tanlovini yangilash va qayta ko'rib chiqish yilda bir marta amalga oshiriladi.

31. Kuzatilayotgan tovarlar turlarining narxlari bo'yicha ma'lumotlar to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda, oylik davriylikda kuzatilayotgan tovarlar turlari narxlari haqidagi ma'lumotlar, faqatgina yirik tayanch korxonalari tomonidan statistika hisoboti shaklida belgilangan muddatlarda, taqdim etiladi.

ikkinchi bosqichda, choraklik davriylikda narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalar tomonidan statistik kuzatuv uchun maxsus ishlab chiqilgan savolnomada belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Shu bilan birga, ular tomonidan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar chorakning har bir oyi bo'yicha diskret shaklida taqdim etiladi.

7-bob. Narxlarni ro'yxatga olish

32. Ulgurji savdo narxlarini ro'yxatga olish tayanch korxonalar mutaxassisleri tomonidan har oyda amalga oshiriladi.

33. Savolnomani to'ldirishda buxgalteriya hisobi hujjatlari (hisob-faktura, shartnoma, to'lov buyurtmasi va boshqalar), shuningdek, tasdiqlangan narxnomalar asos bo'lib hisoblanadi.

34. Narxlarni qayd etish har oyining 15 sanasida amalga oshiriladi. Agarda ulgurji savdo narxlari haqidagi ma'lumotlar ushbu sanada mavjud bo'lmasa, ushbu sanaga yaqin kundagi ulgurji savdo narxlari ko'rsatiladi. Narxlarni ro'yxatga olishdagi oraliqlarni saqlab qolish uchun narxlarni qayd etish bo'yicha belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilish kerak.

35. Savolnomada qo'shimcha qiymat solig'i, savdo ustamasi va boshqa bilvosita soliqlar hisobga olingan holda, lekin iste'molchilarga tovarni yetkazib berish transport xarajatlari hisobga olinmagan holdagi narxlar ko'rsatiladi.

36. Ulgurji savdo narxlarini ro'yxatda olish mobaynida iste'molchilar e'tiborini tortish va tovar aylanmasi hajmini kengaytirish hamda tovar aylanmasini tezlashtirish maqsadida ulgurji savdo tarkibidagi rag'batlantirishlar, chegirmalar va qo'shimchalar hisobga olinmaydi.

37. Narxlarni ro'yxatga olish jarayonida narxlar hamda ulgurji yetkazib berish shartlari (yirik ulgurji, kichik yoki o'rta) qiyosiylikni ta'minlash kerak. Agar ulgurji savdo narxlari yetkazib beriluvchi to'plamning kattaligiga karab farqlansa, u holda narxlarni kuzatish maqsadida birmuncha keng tarqalgan (standart) yetkazib beriluvchi hajmli to'plam tanlanadi.

38. Yetkazib berish shartlari bo'yicha mahalliy va boshqa mamlakatlarning vakil-tovarlari narxlari ro'yxatga olinadi. Ishlab chiqaruvchi mamlakat vakil-tovarning qadog'idagi belgilarga qarab aniqlanadi.

39. Savolnomaning "To'liq tasniflari ko'rsatilgan holda kuzatilayotgan tovarning nomi" jadvalidagi qiyosiylikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqaruvchi mamlakatning aniq shahri ko'rsatiladi, sanoat mahsulotlari uchun esa ishlab chiqaruvchi ko'rsatiladi.

40. Narx o'zgarishini "aniq" aks ettirish uchun, tuzilma va assortiment o'zgarishi, inflyatsion bo'lmagan omillar ta'sirini hisobga olmagan holda hisobot yili davomida o'zaro taqqoslanadigan vakil-tovarlar narxlari ro'yxatga olinadi.

Narxlari taqqoslanmaydigan vakil-tovarlar:

1) bir xil ta'minot bo'yicha turli yetkazib beruvchilar (masalan, turli mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sementi savdosi bo'yicha "Ohangaronsement" AJ va "Qizilqumsement" AJ va boshqalar);

2) agar narx o'lchoviga ta'sir etsa, turli ta'minot shakllari (yirik ulgurji yoki mayda ulgurji);

3) yetkazib berish bo'yicha o'zgaragan to'lov shartlari (qisman yoki to'liq oldindan to'lovlar va boshqalar) va yetkazib berish muddatlari.

41. Narxlar o'rnatilgan standart o'lchov birligi orqali ro'yxatga olinadi (1- ilovada keltirilgan ro'yxatga muvofiq). Vakil-tovarlar savdoda boshqa o'lchov birligida bo'lgan vaziyatlarda narxlar qayta hisoblanadi va qadog'i esa vakil-tovarning elementi xususiyatlari bo'lib hisoblanadi.

42. Quyidagilar ro'yxatga olinmaydi:

1) bir martalik bitimlar bo'yicha o'rnatilgan eng yuqori va demping (past) narxlar;

2) xaridlar hajmini oshirish maqsadida tashkil etilgan tanlovlardagi va lotoreyalardagi taklif etilgan tovarlar narxlari;

3) xususiyatlari ko'rsatilmagan tovar guruhlarining o'rtacha narxlari, bu holda narxlar indekslarini hisoblashda inflyatsiyaga bog'liq bo'lmagan omillar hisobga olingan bo'ladi, bu esa ko'rsatkichlarning buzib ko'rsatilishiga olib keladi.

4) vakil-tovarlarning yaroqlilik muddati o'tib borayotganligi yoki uning tugayotganligi sababli arzonlashtirilgan narxlar.

43. Vakil-tovar narxlaridagi asossiz o'zragishlarni aniqlash va bartaraf etishda statistika organi xodimlari narx-navo ma'lumotlarini mantiqiy nazorat qilish bilan bir qatorda, narx ma'lumotlarini aniqlashda yuzaga kelgan savollarga tanlangan tashkilot mutaxassislari bilan hamkorlikda masalaga oydinlik kiritadilar.

44. Statistika organlari tomonidan mantiqiy nazoratni amalga oshirish bo'yicha quyidagi taqqoslash usullari qo'llaniladi:

- o'tgan davrdagi narx ma'lumotlari bilan;
- bir-biriga o'xshash vakil-tovarlarning turli xil boshqa tanlangan tashkilotlar narxlari bilan;

- bir xil nomdagi vakil-tovarlarning sifat jihatdan yaxshi belgilangan narx mutanosibligi nisbatlariga ko'ra o'zgarishi. Masalan, qadoqdagi sutning narxi yog'lik miqdorining ko'tarilishi qimmatlashadi va h.k;

- sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va chakana savdo korxonalari tomonidan o'xshash turlar, kichik turlar va vakil-tovar navlari o'rtasidagi xilma-xillik. Ishlab chiqaruvchilar tovarlariga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i va transport xarajatlarining hisoblanmasligi bois ishlab chiqaruvchi korxonalarining narxlari ulgurji savdodagi narxlar darajasidan arzonidir, chakana savdo narxlari darajasining yuqoriligi ulgurji savdo narxlariga nisbatan do'konning ustama haqlari va transport xarajatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi.

45. Vakil-tovarlar savdoda vaqtinchalik mavjud bo'lmagan vaziyatlarda narx indekslari dinamik qatorlarining uzluksizligini ta'minlash maqsadida, vaqtincha mavjud bo'lmagan vakil-tovarlar narxlarini "shartli" ravishda takrorlash ishlari amalga oshiriladi.

46. "Shartli" narxlar quyidagi usullar bilan hisoblanadi:

- "shartli" ravishdagi narxlarni belgilashda o'tgan davrdagi ro'yxatga olingan narxlardan foydalaniladi. Bu jarayon vakil-tovarlarning navbatdagi savdo davrigacha, lekin ketma-ket ikki oydan ko'p bo'lmagan muddatlar uchun amalga oshiriladi;

- tanlangan bitta tashkilot bo'yicha vakil-tovarning haqiqiy narxlarini ketma-ket ikki oy mavjud bo'lmaganda, vakil-tovarning haqiqiy sotilgan narxi olinguniga qadar boshqa tayanch korxonalarining aynan shunday vakil-tovarlarning sotish narxlari o'zgarishiga nisbatan "shartli" narxlar hisobga olinaveradi;

- tanlangan tashkilotda tovarning sotilishi butkul to'xtatilganda vakil-tovarni almashtirish amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda kiritilayotgan tovar uchun "shartli" narx boshqa tayanch tashkilotlarning o'tgan davrdagi o'rtacha narxlarining o'zgarishidan kelib chiqib hisoblanadi.

8-bob. Turli darajadagi agregatlarning narx qiymatini hisoblash uchun salmoq vaznlar tizimini shakllantirish

47. Tovarlarning ulgurji savdo narxlari indeksi salmoq vaznlari tizimini shakllantirish uchun (keyingi o'rinlarda – vaznlar tizimi) tayanch davrdagi tovarlarni umumiy ulgurji sotish hajmi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

48. Umumiy ulgurji narx indeksini hisoblashda qo'llaniladigan umumiy salmoq vazn kattaliklarining ulushini butun mamlakat bo'yicha O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasnifiga (IFUT 2-tahrir, O'zDT 005:2011) asosan ulgurji savdo narxlarini kuzatuviga kiritilgan sinflar, guruhlar bo'yicha ulgurji tovarlar narxlarining respublika miqyosida ulgurji tovar savdo aylanmasi hajmida o'zining muhimligini aks ettiradi.

49. Umuman olganda, respublika bo'yicha vaznlar tizimini yaratishda asosiy tayanch davridagi vaznga mos kelish shart-sharoitlariga rioya qilinishi, indekslarning o'rtacha yillik miqdori, yil yakunlari bo'yicha o'tgan yilning dekabr oyidagi tayanch narxlarning yangilanishida tuzatish koeffitsiyenti qo'llagan holda amalga oshiriladi.

50. Yangilanishlarni tuzatish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{aktual} = \frac{STR_{dek,G-1}}{\sum_{n=1}^{12} (STR_{n,G-1}) / 12},$$

bunda:

STR_{dek} – o'tgan oyga nisbatan dekabr oyining mos ravishda tovarlar, sinflari, guruhlari bo'yicha va umumiy ulgurji savdoning qisqa muddatli narx indeksi¹;

STR_n – o'tgan oyga nisbatan n -oyining mos ravishda tovarlar, sinflari, guruhlari bo'yicha va umumiy ulgurji savdoning qisqa muddatli narx indeksi;

n – oy raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.);

$G-1$ – yilning o'tgan yilga nisbatan salmoq vaznlaridan foydalangan holda indekslar hisoblanadigan davr.

51. Qo'llanilayotgan tasniflagichga asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmini yangilangan tuzatilgan koeffitsiyentning barcha tovar aylanmasi hajmiga ko'paytirilib, bundan esa o'z navbatida bevosita salmoq vaznlarni hisoblashda foydalaniladi.

$$d_i = t_i \times K_{aktual}, \quad d_j = t_j \times K_{aktual}, \text{ bunda:}$$

d_i – i -tovarning tayanch yildagi tuzatilgan tovar aylanmasi hajmi;

d_j – tayanch yildagi j -kichik sinfda (sinflar, guruhlar, bo'limlar bo'yicha) tuzatilgan tovar aylanmasi hajmi;

¹ Qisqa muddatli narx indekslarini hisoblash xizmatlari "Ulgurji savdo narxlarini indeksini hisoblash" 8-b'limida keltirilgan.

- t_i – i –tovarning tayanch yildagi qiymati jihatidan ulgurji savdo hajmi;
- t_j – kichik sinfnig (sinf, guruh, bo‘lim bo‘yicha) tayanch yil uchun qiymat jihatidan ulgurji savdo hajmi;

52. Aniq turdagi tovarlar, kichik sinflar, sinflar, guruhlar, bo‘limlar bo‘yicha salmoq vaznlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_i = \frac{d_i}{\sum d_i}, \quad W_j = \frac{d_j}{\sum d_j}, \text{ bunda:}$$

- W_i – i tovarning salmoq vazni;
- W_j – j kichik sinf (sinf, guruh, bo‘lim) bo‘yicha salmoq vazn;
- d_i – i –tovarning tayanch yildagi tuzatilgan tovar aylanmasi hajmi;
- d_j – j -kichik sinf (sinf, guruh, bo‘lim) bo‘yicha tuzatilgan tovar aylanmasi hajmi.

53. Qayta kiritilgan pozitsiyalar bo‘yicha to‘g‘rilangan aktualizatsiya koeffitsiyentlarini aniqlashda guruhlar pozitsiyasining mavjud tuzatish koeffitsiyentlaridan yoki guruhlar bo‘yicha pozitsiyasidan foydalaniladi.

54. Salmoq vaznlar tizimini qayta ko‘rib chiqish tovar va tanlangan tashkilotlarning yangilangan namunalari bilan birgalikda har yili bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi.

9-bob. Ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash

55. Ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash tayanch korxonalardan olingan narxlarga oid ma‘lumotlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Kuzatilayotgan tovarning har bir turi bo‘yicha hisobot davri uchun narx va keyinchalik yuqori darajadagi guruhlariga umumlashtiriladigan oldingi davrga nisbatan narx o‘zgarishlarining nisbiy kattaligi hisoblanib aniqlanadi.

56. Qisqa davrli individual narxlar indeksi alohida tovar turlari uchun hisoblanadi va o‘zi bilan birga aniq (ma‘lum) tovar turlarining joriy oydagi narxlarini o‘tgan oydagi narxlarga nisbatini ifodalaydi:

$$STR_{i(t)} = \frac{P_{i(t)}}{P_{i(t-1)}},$$

Bunda,

$STR_{i(t)}$ – hisobot (t) oyidagi (i) tovar turining qisqa davrli narx indeksini o‘tgan oyga ($t-1$) nisbati;

$P_{i(t)}$ – tovar (i) turining joriy (t) oyidagi narxi;

$P_{i(t-1)}$ – tovar (i) turining o‘tgan ($t-1$) oyidagi narxi.

57. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq davrli individual narx indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$LTR2_{i(t)} = \prod_{m=1}^t STR_{i(m)}$$

bunda

$LTR2_{i(t)}$ – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan tovarning (i) joriy (t) oydagi uzoq davrli narx indeksi;

m – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

58. Individual narx indekslari asosida hisoblangan tovar turlaridan jamlanma narx indekslari hisoblanadi.

Ulgurji savdo narxlari indeksi turli darajadagi agregatsiyalashgan guruhlar bo'yicha hisoblanadi (vakil tovarlar bo'yicha, quyi sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar, seksiya bo'yicha).

Ulgurji savdo narxlari umumlashgan indeksini hisoblashda ikki xil statistik ma'lumotdan foydalaniladi:

a) tayanch yil salmog'i (vazn) tuzilishi;

b) kuzatilayotgan mahsulot turlarining individual narx indekslari.

59. Jamlanma narx indekslarini hisoblash uchun modifikatsiyalangan **Laspeyres** formulasidan foydalaniladi.

60. Yuqorida batafsil yoritib ketilgan narxlar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni to'plashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, narxlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, o'z navbatida ikkita ma'lumotlar to'plamini ham nazarda tutadi. Birinchi to'plam faqatgina yirik korxonalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va har oyda shakllantiriladi. Ikkinchi to'plam kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va har chorakda, chorakning oxirgi oyida o'z ichiga chorakning barcha uch oylaridagi narxlarni o'z ichiga olgan holda shakllantiriladi. Shularni hisobga olgan holda, hisob-kitoblar bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

61. Dastlabki bosqichda, chorakning birinchi va ikkinchi oylarida, yirik va kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlarni o'z ichiga olgan holda shakllantirilgan tanlanma va salmoq vaznlari tuzilmasiga muvofiq, ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash uchun dasturiy ma'lumotlar bazasiga statistik kuzatuv shaklini qabul qilish jarayonida avtomatik ravishda, faqatgina ro'yxat bo'yicha yirik tayanch korxonalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar kelib tushadi. So'ng, faqatgina yirik tayanch korxonalari asosida individual narxlar indeksi hisob-kitob qilinadi. Mazkur yondashuvda indekslarni hisoblashning standart formulalaridan foydalaniladi.

62. Keyingi bosqichda, narxlari mavjud bo'lmagan pozitsiyalar bo'yicha "shartli" hisob-kitoblar va sifat o'zgarishlarini to'g'rilash amalga oshiriladi. Shunday qilib, kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha individual narx indeksleri chorakning dastlabki ikkita oyida "shartli" ko'rsatkichlar sifatida hisoblanadi.

63. Kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha shartli hisoblangan narx indeksleri yirik tayanch korxonalaridan olingan narx indekslarini kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lgan tayanch korxonalarga ekstrapolyatsiya qilinadi. Bunda, kichik tadbirkorlik subyektiga mansub tayanch korxonalardagi har bir tovar bo'yicha qisqa muddatli individual narx indeksiga mazkur tovar mansub bo'lgan guruh (kichik sinf) bo'yicha narx indeksi qo'llaniladi. Agar, tovar guruhi (kichik sinf) bo'yicha narx indeksi ko'rsatkichi nolga teng bo'lsa, unda tasniflagichga muvofiq, yanada yuqoriroq darajadagi indeksdan foydalaniladi. Natijada, yirik tayanch korxonalari bo'yicha amaldagi qisqa muddatli narx indeksleri va kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lgan tayanch korxonalar bo'yicha "shartli hisoblangan" narx indekslarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi shakllanadi.

64. Uchinchi bosqichda ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash yuqoridagi formulalar bo'yicha, yana barcha pozitsiyalar ishtirokida amalga oshiriladi.

yanvar oyida: qisqa muddatli indekslar (o'tgan oyga nisbatan):

$$STR_{j(yan.)} = LTR\ 2_{j(yan.)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(yan.)} \times W_{0i}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}} - \text{kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(yan.)} = LTR\ 2_{k(yan.)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(yan.)} \times W_{0j}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}} - \text{sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(yan.)} = LTR\ 2_{g(yan.)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(yan.)} \times W_{0k}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(yan.)} = LTR\ 2_{r(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{g(yan.)} \times W_{0g}}{\sum_{r=1}^n W_{0g}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(yan.)} = LTR\ 2_{s(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(yan.)} \times W_{0r}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}} - \text{seksiya bo'yicha,}$$

bunda,

$STR_{(jan.)}$ – o'tgan oyga nisbatan yanvar oyidagi qisqa davrli narx indeksi;

$LTR2_{(jan)}$ – o‘tgan yilning dekabriga nisbatan yanvar oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

i – tovar

j – kichik sinf

k – sinf

g – guruh

r – bo‘lim

s – seksiya

$W_{0i}, W_{0j}, W_{0k}, W_{0g}, W_{0r}, W_{0s}$ – mos tovar (i), kichik sinf (j), sinf (k), guruhning (g), bo‘lim (r), seksiya (s) bo‘yicha salmoq vazni,

n – qiymati nolga teng bo‘lmagan $STR_{(jan)}$ sanoat faoliyatiga mos ravishda kichik sinf, sinf, guruh, bo‘lim, seksiyaga kiritilgan pozitsiyalar soni.

65. Fevral oyidan boshlab narxlar indeksini hisoblash yanvar oyidagi kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, biroq, o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ($LTR\ 2$) uzoq muddatli jamlanma indekslar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$LTR2_{j(t)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(t)} \times V_{i(t-1)}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}}, \text{ bunda } V_{i(t-1)} = W_{0i} * \prod STR_{i(t-1)} - \text{kichik sinflar}$$

bo‘yicha;

$$LTR2_{k(t)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(t)} \times V_{j(t-1)}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}}, \text{ bunda } V_{j(t-1)} = W_{0j} * \prod STR_{j(t-1)} - \text{sinflar bo‘yicha};$$

$$LTR2_{g(t)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(t)} \times V_{k(t-1)}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}}, \text{ bunda } V_{k(t-1)} = W_{0k} * \prod STR_{k(t-1)} - \text{guruhlar}$$

bo‘yicha;

$$LTR2_{r(t)} = \frac{\sum_{g=1}^n STR_{g(t)} \times V_{g(t-1)}}{\sum_{g=1}^n W_{0g}}, \text{ bunda } V_{g(t-1)} = W_{0g} * \prod STR_{g(t-1)} - \text{bo‘limlar}$$

bo‘yicha;

$$LTR2_{s(t)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(t)} \times V_{r(t-1)}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}}, \text{ bunda } V_{r(t-1)} = W_{0r} * \prod STR_{r(t-1)} - \text{seksiya bo‘yicha};$$

fevral oyidan boshlab qisqa muddatli indekslar o‘tgan oyga nisbatan quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$STR_{j(t)} = \frac{LTR 2_{j(t)}}{LTR 2_{j(t-1)}} - \text{kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(t)} = \frac{LTR 2_{k(t)}}{LTR 2_{k(t-1)}} - \text{sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(t)} = \frac{LTR 2_{g(t)}}{LTR 2_{g(t-1)}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(t)} = \frac{LTR 2_{r(t)}}{LTR 2_{r(t-1)}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(t)} = \frac{LTR 2_{s(t)}}{LTR 2_{s(t-1)}} - \text{seksiya bo'yicha,}$$

Chorakning uchinchi oyida, statistika organlarida yirik tayanch korxonlari bilan birgalikda kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalari bo'yicha ham amaldagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalari shakllantirilganda, yanvar oyidan fevral oyigacha narxlar indeksining retrospektiv hisob-kitobi amalga oshiriladi va mart oyi uchun amaldagi narxlar asosida narx indekslari shakllantiriladi.

Keyingi choraklarda hisob-kitoblarning uchchala bosqichi ketma-ketligi takrorlanadi, shuningdek, barcha bosqichlarda fevral oyida qo'llanilgan formulalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksidan tashqari quyidagi uzoq muddatli ko'rsatkichlar ham shakllantirildi:

O'tgan yilning tegishli oyiga nisbatan joriy yilning hisobot oyidagi narxlar indekslari $LTR 3$: (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 3_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{LTR 1_{t(y-1)}},$$

bunda,

$LTR 3_{(t)}$ – hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun o'tgan yilning mos oyiga (t) nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksi $(y-1)$;

$LTR 1_{t(y)}$ – yagona tayanch davr uchun hisoblangan hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

$LTR 1_{t(y-1)}$ – yagona tayanch davr uchun hisoblangan o'tgan yilning $(y-1)$ mos oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

Davrning narxlar indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan $LTR 4$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 4_{(t)} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y)}}{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y-1)}},$$

bunda

- $LTR 4_{(t)}$ – oʻtgan yilning mos davriga ($y-1$) nisbatan hisobot yilining (y) yanvar oyidan joriy oyga (t) qadar uzoq muddatli narxlar indeksi;
- n – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

Bundan tashqari, narx indekslari har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun oʻtgan chorakka va oʻtgan yilning mos choragiga nisbatan ham hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi formulalar qoʻllaniladi:

Hisobot yili joriy choragining narxlar indeksi oʻtgan chorakka nisbatan $LTR 5$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 5_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q-1)}}$$

bunda

- $LTR 5_{(q)}$ – joriy chorak narx indeksi (q) oʻtgan chorakka nisbatan ($q-1$);
- m – chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Hisobot yili joriy choragining oʻtgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar indeksi $LTR 6$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 6_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y-1)}}$$

bunda

- $LTR 6_{(q)}$ – oʻtgan yilning mos choragiga nisbatan ($y-1$) hisobot yili (y) joriy chorak narx indeksi (q);
- m – chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qoʻshimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining bazaviy yilning oʻrtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 7$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 7_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(z)}}$$

bunda

- $LTR 7_{(q)}$ – bazaviy yilning oʻrtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

- $LTR 1_{(y)}$ – yagona bazaviy davr uchun hisoblangan hisobot yilining uzoq muddatli indeksi (y);
- $LTR 1_{(z)}$ – yagona bazaviy davr uchun hisoblangan bazaviy yilining uzoq muddatli indeksi (z);
- m – chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, ikkinchi oyi va uchinchi oyi uchun).
- n – bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy choragining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 8$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR8_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR1_{m(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)}}$$

bunda

- $LTR 8_{(q)}$ – joriy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);
- m – chorakdagi oyning tartib raqami (1- chorakning birinchi oyi, ikkinchi oyi va uchinchi oyi uchun).
- n – bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining tayanch(bazaviy) yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 9$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR9_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(z)}}$$

bunda

- $LTR9_{(t)}$ – bazaviy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);
- n – bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 10$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 10_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(y)}}$$

bunda

- $LTR10_{(t)}$ – hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);
- n – oyning tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga narxlar indeksi (LTR8 va LTR10) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan so'ng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (LTR8) va oy uchun (LTR10) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

66. Narxlar indeksining o'rtacha oylik ko'rsatkichlari o'rtacha geometrik kattalikni hisoblash formulasidan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{STR_1 * STR_2 * ... * STR_n}$$

bu yerda:

- $\overline{I_p}$ – birinchi oydan n-chi oygacha davr uchun o'rtacha oylik narx indeksi;
- STR – o'tgan oyga nisbatan har bir oy uchun qisqa muddatli narx indeksi;
- p – oylar soni.

67. Yil boshidan bo'lgan davr uchun o'rtacha oylik narx indeksini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{LTR_2},$$

bunda

- $\overline{I_p}$ – birinchi oydan n-chi oygacha davr uchun o'rtacha oylik narx indeksi;
- LTR_2 – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan n-chi uchun narx indeksi;
- n – oyning tartib raqami.

10-bob. Ulgurji savdo o'rtacha narxlarini hisoblash

68. Tovarlar bo'yicha narxlar o'rtacha geometrik formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\overline{P_t} = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n P_{i(t)}}$$

bunda

- $\overline{P_t}$ – tovar bo'yicha joriy uchun (t) o'rtacha narx
- $P_{i(t)}$ – har bir tayanch korxona bo'yicha mazkur tovar turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan tovar bo'yicha ulgurji savdo korxonalarining joriy oy (t) uchun narxi (i);
- n – mazkur tovar (xizmat) turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan tovar ulgurji savdo tayanch korxonalar soni.

Yuqorida keltirilgan formula aniq bir oy bo'yicha o'rtacha narx darajasini hisoblash uchun ishlatiladi.

69. Chorak va yil boshidan oʻrtacha narxlarni hisoblashda, chorak yoki yil boshidan hisoblangan davrga kiruvchi har bir oyning oʻrtacha narxlaridan oʻrtacha arifmetik oʻrtacha kattalik formulasidan foydalaniladi.

11-bob. Maʼlumotlarni tahlil qilish

70. Maʼlumotlarni tahlil qilish bosqichida ulgurji narxlar indeksi toʻgʻrisidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika maʼlumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

71. Maʼlumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, maʼlumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni koʻrib chiqish, shakllantirilgan maʼlumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish boʻyicha ishlar amalga oshiriladi.

Ulgurji narxlar indeksi toʻgʻrisidagi statistika maʼlumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik koʻrsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yoʻqligi), yaxlitligi (qamrovning toʻliqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyli (hudud, qamrab olingan obyektlar doirasi, oʻlchov birligi va boshqalar boʻyicha), bir xilda tuzilganligi (maʼlumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin oʻzgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari koʻrib chiqiladi.

72. Maʼlumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekirish ishlari birlamchi maʼlumot qamrovi koʻrsatkichi va savolnoma boʻyicha taqdim etilgan javoblar koeffitsiyentining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish, statistika maʼlumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlarini oʻz ichiga oladi.;

Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida ulgurji narxlar indeksi toʻgʻrisidagi statistika maʼlumotlarini toʻgʻri talqin qilinishini taʼminlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar tayanch korxonalar va ular boʻyicha individual maʼlumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi maʼlumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish boʻyicha choralar qoʻllash amalga oshiriladi.

12-bob. Yakuniy qoidalar

73. Ulgurji narxlar indeksini tarqatish GSBPMning VII bosqichida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumiy ulgurji savdo narxlari indeksi mahsulotning doimiy ravishda shartlari va tovarlarning sifat koʻrsatkichlari barqarorligi sharoitida ulgurji savdoning narx dinamikasini aks ettiradi.

74. Iqtisodiy faoliyat turlari va tovarlar turlari bo'yicha ulgurji savdo narxlari indeksini hisoblash Statistika agentligi tomonidan butun respublika bo'yicha amalga oshiriladi.

75. Har chorakning dastlabki ikki oyi uchun ulgurji narxlar indeksi "Yirik korxonalar bo'yicha amaldagi narxlar va kichik tadbirkorlik korxonalari bo'yicha shartli hisob-kitoblarni hisobga olgan holda dastlabki ma'lumotlar" qaydi bilan, qolgan oylarda "Yirik va kichik tadbirkorlik korxonalari bo'yicha amaldagi narxlarni hisobga olgan holda qayta hisoblangan ma'lumotlar" qaydi bilan nashr etiladi.

76. Umumiy ulgurji savdo narxlari indeksi statistika organlari tomonidan taqqoslama narxlarda ulgurji savdo hajmini qayta hisoblash uchun ishlatiladi.

77. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi va iste'mol narxlari indeksiga qo'shimcha ravishda umumiy ulgurji savdo narxlari indeksi iqtisodiyotning real sektoridagi iqtisodiy tahlillarni yaxshilashga va aniq turdagi mahsulotlar harakati natijasida bozorlardagi narxlar o'zgarishini kuzatish imkonini yaratadi.

78. Ma'lumotlar nashrlar va rasmiy havolalarda verguldan so'ng bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: nazariya va amaliyot (BMT, YeIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Butunjahon banki) 2004- y. <http://www.imfbookstore.org>, <http://www.cisstat.org>;

2. "O'zbekiston. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi bo'yicha missiya hisoboti (2021- yil 12-16 iyul). Texnik hisobot" B. Graf, 2021- yil 12- noyabr;

3. "Choraklik milliy hisoblar bo'yicha qo'llanma" 2017- yildagi nashr// Xalqaro valyuta jamg'armasi – 2018- y.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti O'zDT 005: 2011. Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir).

“Ulgurji tovar savdolari umumiy narx indeksini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizom”ning
1-ilovasi

**ULGURJI SAVDO NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA
ULGURJI SAVDO TOVARLARI NOMENKLATURASI**

Tovarlar nomi	Satr kodi	O'lchov birligi
A	B	V
Mamlakatda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar	45.11.11	dona
Boshqa yengil avtomobillar (mamlakatda ishlab chiqarilganlaridan tashqari)	45.11.12	dona
Boshqa yengil motorli transport vositalari	45.11.19	dona
Yuk avtomobillari	45.19.11	dona
Avtobuslar	45.19.12	dona
Boshqa toifaga kiritilmagan, motorli transport vositalari	45.19.19	dona
Avtomobil detallari, uzellari va jihozlari	45.31.00	dona
Motosikllar va mopedlar	45.40.11	dona
Motosikllar va mopedlarning detallari, uzellari va jihozlari	45.40.12	dona
G'alla	46.21.11	tonna
Urug'lar va hayvonlar uchun ozuqalar (omuxta yem)	46.21.12	tonna
Boshqa toifaga kiritilmagan qishloq xo'jalik xomashyosi	46.21.19	tonna
Ishlov berilmagan tamaki	46.21.20	tonna
Gullar va boshqa o'simliklar	46.22.00	ming dona
Tirik hayvonlar	46.23.00	dona
Teri va charm	46.24.00	ming kv.m
Tarvuz va qovun (yangi uzilgan)	46.31.01	tonna
Boshqa mevalar (yangi uzilgan)	46.31.02	tonna
Qovoq (yangi)	46.31.03	tonna
Boshqa sabzavotlar (yangi)	46.31.04	tonna
Qayta ishlangan sabzavotlar	46.31.05	tonna
Qayta ishlangan mevalar	46.31.06	tonna
Go'sht, parranda go'shtini qo'shgan holda	46.32.01	tonna
Go'sht konservalari	46.32.02	tonna
Kolbasa mahsulotlari va dudlamalar	46.32.03	tonna
Boshqa go'sht mahsulotlari	46.32.09	tonna
Quruq sut	46.33.01	tonna
Pishloq	46.33.02	tonna
Sariyog'	46.33.03	tonna
Muzqaymoq	46.33.04	tonna
Boshqa toifaga kiritilmagan sut va boshqa sut mahsulotlari	46.33.05	tonna
O'simlik yog'i	46.33.06	tonna
Qizdirilgan oziq-ovqat yog'i va boshqa oziqabop hayvon yog'lari	46.33.07	tonna
Margarin mahsuloti	46.33.08	tonna
Tuxum	46.33.09	ming dona
Aroq va liker-arq mahsulotlari	46.34.11	dal

Tovarlar nomi	Satr kodi	O'lchov birligi
A	B	V
Vino	46.34.12	dal
Konyak	46.34.13	dal
Shampan vinosi	46.34.14	dal
Pivo	46.34.21	dal
Spirtsiz ichimliklar	46.34.22	dal
Tamaki mahsulotlari	46.35.00	quti (20 d.)
Shakar	46.36.01	tonna
Shokolad, shakar va shokoladdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari	46.36.02	tonna
Non va non mahsulotlari (jumladan xamirdan tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari)	46.36.03	tonna
Qahva	46.37.01	tonna
Choy	46.37.02	tonna
Kakao va ziravorlar	46.37.03	tonna
Un	46.38.01	tonna
Makaron mahsulotlari	46.38.02	tonna
Tuz	46.38.03	tonna
Baliq va dengiz oziq-ovqat mahsulotlari	46.38.04	tonna
Baliq konservalari	46.38.05	tonna
Guruch	46.38.06	tonna
Boshqa yormalar (guruchdan tashqari)	46.38.07	tonna
Bolalar ovqatlari	46.38.08	tonna
Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari	46.38.09	tonna
Yigirilgan ip	46.41.01	tonna
Gazlamalar	46.41.02	Ming pogonometr
Attorlik mollari	46.41.03	dona
Dasturxon va choyshab, pardalar va boshqa to'qimachilik mahsulotlari	46.41.09	tonna
Kiyimlar	46.42.11	dona
Bosh kiyimlar	46.42.12	dona
Paypoq buyumlari	46.42.13	ming juft
Kiyimlar uchun aksessuarlar	46.42.19	ming dona
Poyafzallar	46.42.90	ming juft
Televizorlar	46.43.11	dona
Radio- va boshqa teleapparat (maishiy)	46.43.19	dona
Kompakt disklar, raqamli disklar, optik disklar (CD va DVD) va boshqa yozuvli ma'lumot tashuvchilar	46.43.20	ming dona
Maishiy kir yuvish mashinalari	46.43.91	dona
Elektr chang yutgichlar	46.43.92	dona
Elektr dazmollar	46.43.93	dona
Konditsionerlar	46.43.94	dona
Sovutgichlar va muzlatgichlar	46.43.95	dona
Fotouskunalar va optik tovarlar	46.43.96	ming dona
Boshqa maishiy elektr tovarlar	46.43.99	dona
Shisha, kulolchilik va chinni buyumlar	46.44.01	ming dona
Sintetik yuvish vositalari	46.44.02	tonna
Xo'jalik sovuni	46.44.03	tonna
Boshqa tozalash va sayqallovchi vositalar	46.44.09	tonna

Tovarlar nomi	Satr kodi	O'lchov birligi
A	B	V
Atir sovun	46.45.01	tonna
Parfyumeriya va pardozi tovarlari	46.45.02	dona
Farmatsevtika, tibbiyot vositalari va preparatlari	46.46.01	qadoq
Tibbiyot, jarrohlik va ortopediya asboblari va moslamalari	46.46.02	dona
Maishiy mebellar	46.47.11	dona
Gilam va gilam mahsulotlari	46.47.12	ming.kv.m
Yoritish uskunolari	46.47.20	dona
Soatlar	46.48.01	ming dona
Zargarlik buyumlari	46.48.02	gramm
Oshxona anjomlari va metall idishlari	46.49.01	dona
Kitoblar, jurnallar va gazetalar	46.49.02	ming dona
Kanselyariya buyumlari	46.49.03	ming dona
Musiqasi asboblari	46.49.04	dona
O'yinlar va o'yinchoqlar	46.49.05	ming dona
Velosipedlar va ularning ehtiyot qismlari va aksessuarlari	46.49.06	dona
Sport tovarlari, jumladan chang'i botinkalari kabi maxsus sport poyafzalari	46.49.07	ming dona (ming juft)
Boshqa guruhlariga kiritilmagan iste'mol tovarlari	46.49.09	ming dona
Kompyuterlar	46.51.01	dona
Kompyuter alohida sirtqi uskunolari va dasturiy ta'minot	46.51.02	ming dona
Uyali va boshqa simsiz aloqa tarmog'i uchun telefonlar	46.52.01	ming dona
Boshqa telekommunikatsion uskunalar va ularning qismlari	46.52.02	ming dona
Kompakt disklar, raqamli disklar, optik disklar (CD va DVD) va boshqa yozuvsiz ma'lumot tashuvchilar	46.52.03	ming dona
Elektron uskunalar va ularning qismlari	46.52.04	dona
Yig'im-terim mashinalari	46.61.01	dona
Qishloq va o'rmon xo'jaligida foydalaniladigan traktorlar	46.61.02	dona
Boshqa qishloq va o'rmon xo'jaligi uchun mashina va uskunalar hamda ularning ehtiyot qismlari (qishloq va o'rmon xo'jaligida foydalaniladigan yig'im-terim mashinalari va traktorlardan tashqari)	46.61.03	dona
Bog' va parklar uchun mashina va uskunalar hamda ularning ehtiyot qismlari	46.61.04	dona
Dastgohlar	46.62.00	dona
Tog'-kon sanoati va fuqarolik qurilishi uchun texnikalar	46.63.00	dona
To'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoati uchun texnikalar	46.64.00	dona
Ofis mebellari	46.65.00	dona
Ofis texnikasi va uskunolari	46.66.00	dona
Elektr simlari va shnurlari, elektr o'rnatish uskunolari	46.69.01	ming metr/ ming dona
Boshqa texnika va uskunalar	46.69.09	dona
Qattiq yoqilg'i	46.71.01	tonna
Avtomobil benzini	46.71.02	tonna
Dizel yoqilg'isi	46.71.03	tonna
Suyultirilgan gaz	46.71.04	tonna
Moylash moddalari va materiallari, moylar va boshqa yoqilg'i	46.71.09	tonna
Temir rudasi	46.72.01	tonna
Rangli metallar rudasi	46.72.02	tonna

Tovarlar nomi	Satr kodi	O'lchov birligi
A	B	V
Birlamchi shakldagi qora metallar	46.72.03	tonna
Birlamchi shakldagi rangli metallar	46.72.04	tonna
Qayta ishlanmagan yog'och	46.73.01	kub.m.
Birlamchi qayta ishlangan yog'och mahsulotlari	46.73.02	kub.m.
Sanitariya texnik uskunalar	46.73.03	dona
Lak va bo'yoq	46.73.04	tonna
Sement	46.73.05	tonna
Qum, shag'al, tosh, tuproq	46.73.06	tonna
G'isht	46.73.07	ming dona
Cherepitsa, plitkalar	46.73.08	ming kv.m
Boshqa guruhlarda ko'rsatilmagan boshqa qurilish mollari	46.73.09	tonna
Metall buyumlar, suv quvurlari va isitish uskunolari va inventarlari	46.74.00	tonna
O'g'itlar va agrokimyo mahsulotlari	46.75.01	tonna
Sanoat kimyoviy moddalari	46.75.02	tonna
Qog'oz va karton	46.76.01	tonna
Birlamchi shakldagi plastmass va rezina	46.76.02	tonna
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa oraliq mahsulotlar	46.76.09	tonna
Chiqindi va siniq parchalar	46.77.00	tonna

**) alohida o'lchov birliklari bo'lgan mahsulotlarning keng assortimentini o'z ichiga olgan istisno holatlarda (masalan, "Boshqa guruhlarga kiritilmagan alohida turdagi qurilish materiallari" (tonna, metr kub, metr kv va h.k.) statistika kuzatuvlarini o'tkazishda asosiy tashkilot mutaxassislari bilan kelishilgan holda o'lchov birligida joriy mahsulot turiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Shu bilan birga, narxlarni kuzatishning barcha davri mobaynida ko'rsatkichlarning solishtirilishini ta'minlash maqsadida, tashkilotlar tovarlarni kelishgan o'lchov birligida taqdim qiladi.*